UO‘K 81`23

ISTAK KATEGORIYASINING KOGNITIV-PRAGMATIK VA KOMMUNIKATIV TALQINLARI

K.J. Umarov

Maqolada o‘zbek tilida istak kategoriyasi verbalizatorlarining kognitiv-pragmatik va kommunikativ xususiyatlari hamda unda nutqiy akt mazmunining tarkib topishi, uning voqelanishi so‘zlovchining istagi bilan bog‘liqligi asoslangan. Muloqot maqsadi turli nutqiy aktlarni yuzaga chiqaruvchisi sifatida lokutiv, illokutiv va perlokutiv bosqichlarda ko‘rib chiqilgan va istak aktini yuzaga chiqaruvchilari tahlilga tortilgan. Istak kategoriyasining o‘zbek tilidagi o‘ziga xos verbal vositalarini konseptual metod asosida tadqiq qilish istiqbollari asoslangan.

Kalit so‘zlar: *kategoriya, nutqiy akt, propozitsiya, lokutsiya, illokutsiya, perlokutsiya, pressuppozitsiya, verbal vositalar, muloqot maqsadi*.

В статье когнитивно-прагматические и коммуникативные особенности вербализаторов категории желания в узбекском языке, а также состав содержания речевого акта и его реализация основываются на желании говорящего. Цель общения как творец различных речевых актов рассматривалась на локативной, иллокутивной и перлокутивной стадиях, анализировались творцы акта желания. Обоснованы перспективы исследования специфических глагольных средств категории желания в узбекском языке на основе концептуального метода.

Ключевые слова: *категория, речевой акт, пропозиция, локуция, иллокуция, перлокуция, пресуппозиция, вербальные средства, цель общения.*

Istak kategoriyasining o‘zbek tilidagi o‘ziga xos verbal vositalarini konseptual metodologiya asosida tadqiq qilish ushbu kategoriya semantikasi voqelanishi jarayonidagi kognitiv va pragmatik xususiyatlarning namoyon bo‘lishini ilmiy asoslash imkonini beradi. Pragmalingvistik yo‘nalishdagi tadqiqotlarning yuzaga kelishi bilan istak mazmuni nutq subyekti bilan bog‘liq masalalar qatorida nutqiy akt turlaridan biri sifatida o‘rganila boshlandi. “...lisoniy muloqot tizimi nutq subyekti nuqtayi nazaridan tadqiq qilinganda, e’tibor nutqiy akt turlarining mazmuni, diskurs tuzilishida muloqot maqsadining o‘rni, tagma’noning ifoda topishi, pressuppozitsiya va muloqot ishtirokchilarining mental qobiliyati kabi hodisalarga qaratiladi” [1. B. 75].

Nutqiy akt nazariyasi – maqsadli ifodalarni tavsiflashning yangi usuli sifatida lingvopragmatik mezonlar qatorida faol qo‘llanila boshladi. “Nutqiy akt – ma’lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. Nutqiy akt mazmunining shakllanishi talaffuz qilinayotgan gap ma’nosining so‘zlovchi va tinglovchi tomonidan muloqot matniga nisbatan “boyitilishi”, idrok etilishi natijasidir. Demak, nutqiy akt mazmunining tarkib topishi va uning voqelanishi bevosita so‘zlovchining muloqot maqsadi, istagi bilan bog‘liqdir” [1. B. 79].

Lingvopragmatikada nutqiy aktlar muammosi J.Ostin, J.Serl, F.Dorj, N.Arutyunova, A.Doroshenko, G.Matveyeva, Sh.Safarov, M.Hakimov tomonidan tadqiq etilgan.

Sh.Safarov Jon Serlning “...gap belgisining ma’lum sharoitda yaratilish va qo‘llanishi nutqiy aktdir va nutqiy aktlar lisoniy muloqotning asosiy va eng kichik (minimal) birligi” [1. B. 79] ekanligi xususidagi fikriga tayanib, “gap aynan nutqiy muloqot jarayonida yaratiladigan hodisa, shunday ekan, nutqiy akt mazmuni to‘lig‘icha so‘zlovchining muloqot maqsadi (communicative intention) bilan bog‘liq bo‘lib qoladi” [1. B. 80], degan xulosani ilgari suradi.

Nutqiy aktning mazmuni uch bosqichli nutqiy faoliyat – lokutiv, illokutiv, perlokutiv aktlar natijasida yuzaga keladi. M.Hakimov J.Serl, A.V.Doroshenkolarning fikrini ma’qullab, nutqiy

akt tarkibiga propozitsiyani ham kiritadi: “Ifodaning mazmuniy tarkibi so‘zlovchining “men”i bilan bog‘liq holda semiologik tuzilishiga ko‘ra to‘rt daraja (rang)ga ajratiladi: *so‘zlash akti (lokutsiya), propozitsiya, so‘zlovchi niyati (illokutsiya)* va *nutqiy ta’sir etish (perlokutsiya)*” [2. B. 32; 3. B. 77].

Ma’lumki, gapning denotativ aspektini ifodalash uchun ko‘p hollarda “propozitsiya” terminidan foydalaniladi [3. B. 26]. Propozitsiya (propositio) − lotincha so‘z bo‘lib, “asosiy vaziyat, asos (dalil) bo‘la oladigan dastlabki hukm, fikr, predmet” degan ma’noni anglatadi [4]. Hozirgi kunda propozitsiya gapda aks etgan obyektiv vaziyat, voqea nomi, gapning obyektiv mazmuni sifatida talqin etilmoqda [5. B. 28; 6. B. 16; 7. B. 17].

Lokutiv akt. Har qanday ifoda yoki nutq so‘zlovchi tomonidan talaffuz qilinar ekan, u mavjud grammatik va sintaktik qoidalar bilan birga talaffuz qilinayotgan tilning fonetik xususiyatlariga mos tarzda lokutiv aktni hosil qiladi. Bunda talaffuz qilinayotgan til segment va supersegment birliklar sistemasi o‘ziga xos artikulyatsion-akustik xususiyatlari bilan namoyon bo‘ladi hamda nutq vaziyatiga bog‘liq turli-tuman ottenkalar bilan to‘yinadi. Mazkur talaffuz jarayoni yoki pragmatik til bilan aytilganda, nutqiy aktlarning talaffuzlanuvchi qismi lokutiv akt deb yuritiladi [8. B. 26-30].

Illokutiv akt – nutqiy ifodaning *tasdiq, savol, javob, buyruq, iltimos, gumon, ishonch, xohish* kabi kommunikativ yo‘nalishini tavsiflovchi mantiqiy mazmun. Nutqiy akt nazariyasida illokutiv akt asosiy tushuncha hisoblanadi.

Perlokutiv akt – gapning ifoda mazmuni bilan kommunikativ niyatni birlashtiradi. *Urg‘u, intonatsiya, fe’l mayli, so‘z tartibi* kabi “illokutsiya kuchi” (J.Ostin) ko‘rsatkichlari gapni qanday qabul qilish va tushunishni aniqlashtiradi. Perlokutiv akt deganda, illokutiv aktning so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxsga ta’siri nazarda tutiladi. Umuman olganda, har uchala pragmatik akt bir paytning o‘zida yuzaga keladigan bir-biri bilan uzviy bog‘liq tushunchalarni anglatadi. Misollarga e’tibor bering:

Oyi, sharbat tayyorlab bering.

1-bosqich – Lokutiv akt: jumlaning nutqiy ifodalanishi, ya’ni so‘zlovchi tomonidan nutq ijrosi.

2-bosqich – Illokutiv akt: jumlaning iltimos modal ma’nosi (iltimos akti)

Jumladagi bilvosita illokutiv akt: *so‘zlovchi sharbat ichishni xohlamoqda* (istak akti)

3-bosqich – Perlokutiv akt: *adresat so‘zlovchiga sharbat tayyorlab beradi*.

Ushbu nutqiy akt tahlili shuni ko‘rsatadiki, muayyan jumla orqali so‘zlovchi nutqida ifodalanadigan modal ma’no pragmatik jihatdan ham eksplitsit, ham implitsit ma’no tashiydi va bu ma’nolarning har biri ma’lum bir nutqiy aktga teng.

Istak mazmunini ifodalovchi til birliklarini nutqiy akt sifatida qabul qilamiz, uning ifoda maqsadi so‘zlovchining voqelikka munosabati bo‘lib, istakni qabul qilingan me’yorlarga muvofiq amalga oshirishni talab qiladi. Istak so‘zlovchining qabul qiluvchiga nisbatan ijobiy xayrixoh munosabatini ifodalaydi. Bu tuyg‘uning ifodasi ushbu jamiyatning boshqa a’zolari bilan munosabat o‘rnatish yoki davom ettirishga yordam beradi, shuning uchun ijobiy istak ifodasi shaxslararo munosabatlarni tartibga solishga qaratiladi.

Pragmalingvistikaga doir ishlarda nutqiy akt so‘zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga bo‘ysundirilgani bois uning turli ko‘rinishlari farqlanishi ta’kidlanadi. Xususan, buyruqni ifoda etuvchi nutq ko‘rinishi buyruq nutqiy aktini, so‘roqni ifoda etuvchi nutq parchasi so‘roq nutqiy aktini, istakni ifodalovchi nutq ko‘rinishi istak nutqiy aktini hosil qiladi. M.Qurbonova bolalar kommunikativ faoliyatida ko‘p uchraydigan nutqiy akt ko‘rinishlarining semantik jihatdan *xabar, so‘roq, iltimos, buyruq, undash, kechirim, va’da, istak, talab* kabi 14 turini tasniflaydi. Shu tariqa, istak nutqiy aktini ham bolalar nutqining mazmuniy turlari doirasida o‘rganadi [9. B. 15].

M.Qurbonova sof so‘roq gaplar orqali ham bilvosita nutqiy akt hosil bo‘lishi mumkinligiga e’tibor qaratadi. Bunda bolaning ichki niyati nutq adresatiga ma’lum bo‘lmasa-da, u bolaning savolida qandaydir istak yashiringanini idrok etadi. Quyidagi dialogik nutqda shunday holat kuzatiladi:

– *Oyi, qachon biznikiga mehmon keladi?*

– *Nima qilar eding?*

– *Ko‘pgina konfet yeyardik*. (M.Sodiqova. “O‘zi ham shirin, so‘zi ham”) [9. B. 32].

V.Ye.Iosifova *iltimos* aktida so‘zlovchi,

odatda, adresatdan ma’lum bir harakatni bajarishini so‘raydi; uning *iltijo, yalinish, yolvorish, ishontirish* variantlari bilan esa tinglovchining his-tuyg‘ulariga ta’sir qilishni nazarda tutadi [10. B. 424–431].

N.I.Formanovskayaning fikricha, nutqiy ta’sir yetakchi belgilardan biridir. Bir tomondan, so‘zlovchi irodasini aks ettiruvchi maqsad qo‘yish, ikkinchi tomondan, qabul qiluvchini harakatga undashdir [11. B. 306].

Endigina esimni tanib, maktabga borganimga ham bir yildan oshgandi. Yanglishmayman, ikkinchi sinfda o‘qisam kerak. Buvimning bevaqt vafot etishi, mening hayotimda chuqur iz qoldirdi. Yo‘qotish nima ekanligini o‘shanda his etgan edim… Ammo buvim mening ingichka bilaklarimni ushlarkan, “ko‘p o‘qigin, bolam, katta odam bo‘lgin” degandi… Birdan-bir ishim buvim va bobom, so‘ngra ota-onamning orzularini ro‘yobga chiqara boshladim… O‘qidim, izlandim, pishdim… (X.To‘liboyev, “Kuygan ko‘ngil nolasi”).

Yuqoridagi misolda buvisining umri oxiridagi xohish-istagi nabiraning bola qalbiga chuqur o‘rnashib, kelajak hayotiga katta motivatsiya berganligini nutqiy ta’sirning ibratli namunasi deyish mumkin.

Tadqiqotchi M.Ya.Glovinskaya “*iltimos qilmoq*” fe’li talqinida “*X Y ning P qilishini xohlashi*”-ni aytadi [12. B. 158–218].

Gulira’no opa o‘g‘lining firmasiga telefon qilib, ishdan barvaqtroq kelishini iltimos qildi.

– Tinchlikmi, oyijon? – go‘shakdan Jahongirning bir oz xavotirliroq ovozi eshitildi. – Mehmon-pehmon kutmayapsizmi, ishqilib?

Yo‘q, o‘g‘lim, hech kimni kutayotganim yo‘q, – uni tinchlantirishga shoshildi Gulira’no opa, – shunchaki, hammamiz birga o‘tirib, ovqatlanaylik, devdim. Anchadan beri hammamiz bir dasturxon atrofida yig‘ilmagandik. B-i-i-r o‘tiraylik! (D.Barotova, “Umid zarrasi”).

Farzandlarning orzu-istaklari bilan yashayotgan ona o‘zining kasal ekanligini eshitib, chuqur iztirobga tushadi va bolalaridan umid uzolmay ruhan qiynaladi. Ana shu ruhiy holatini atrofidagilarga sezdirmaslikka harakat qiladi. O‘z holatini o‘g‘liga sezdirib qo‘ymaslikka urinadi. Onaning o‘g‘liga iltimosi zamirida *oilani jamlikda ko‘rish* istagi yotadi va bu o‘g‘ilni harakatga undaydi.

V.M.Savitskiy ta’kidlaganidek, istak – bu “aqliy faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan chuqur ichki motivatsiya” [13. B. 36]. Istaklarning aqlga bo‘ysunishi masalasi turli davrlarda Z.Freyd, K.Yung, K.Xorni kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan [14. B. 126].

Z.Freydning fikricha, inson egosi, obrazli qilib aytganda, otning xohishiga ko‘ra olib ketayotganini payqamay, o‘zi xohlagan joyga yo‘naltiradi, deb o‘ylaydigan chavandozdir. Ba’zan chavandoz bu holatni anglab yetadi va otni oqilona yo‘l bo‘ylab yo‘naltirishga harakat qiladi; bu urinishlar tilda *o‘z-o‘zini o‘zi boshqarish, o‘zini qo‘lga olmoq, o‘zini tutib olmoq, o‘zini mustahkam tutmoq, o‘zini qattiq ushlab turish* va hokazo so‘z va iboralar yordamida ifodalanadi. Ba’zi hollarda bu muvaffaqiyatli amalga oshadi, ba’zan esa yo‘q [15. B. 47–54].

Istak ma’nosini ifodalovchi usul va vositalarni tizimlashtirishdan avval e’tiborni bu tushunchaning funksional-semantik maydonini belgilab olishga qaratish kerak. Tadqiqotchilar muayyan konseptual mazmunning funksional-semantik maydonini aniqlashda ikki xil – monotsentrik va politsentrik tamoyilga suyanadilar. Istak ma’nosining monotsentrik yadrosida turli til sathlariga oid morfologik, sintaktik va leksik-semantik vositalar yotadi. Demak, istak-xohish mazmuni uchun xizmat qiladigan turli ifoda birliklari umumiy istak-xohish maydoniga birlashadi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, “maydon markazini (yadrosini) tashkil etuvchi, faqat o‘sha maydon belgisini ifodalash uchun xoslangan birliklar hamma turdagi maydonlarda ham ozchilikni tashkil etadi. Boshqa vazifadoshlar belgini ifodalash darajasiga ko‘ra ushbu markazdan uzoqlasha boradi, shu sababdan qo‘shni markazlar ta’siriga ko‘proq beriladi” [16. B. 83–87].

A.Shamaxmudova bilvosita nutqiy aktlarni tadqiq etar ekan, so‘zlovchining maqsadi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalanmasdan illokutiv maqsad implitsit, ya’ni bilvosita voqelantirilib, bunda adresantning muloqot maqsadi illokutiv harakat vositasida bilvosita nutqiy akt sifatida vujudga kelishi, ya’ni ikki illokutiv akt qavatlanishi haqida fikr yuritadi [16. B. 83–87].

Bilvosita istak aktida funksional-semantik maydon (FSM) periferiyasiga oid til birliklari ham ishtirok etadi. Masalan, *Bolamni chaqiring* jumlasida istak buyruq maylining *-ing* formasi

orqali ifodalangan bo‘lsa-da, bilvosita istak aktida so‘zlovchining *bolasini ko‘rishni istayotgani* anglashiladi.

Nutqiy akt nutqiy faoliyatning minimal birligidir. Nutqiy aktni nutqiy faoliyat natijasi sifatida tahlil qilishda subyekt, maqsad, usul, vosita, natija, shart-sharoit, muvaffaqiyat kabi umumfalsafiy kategoriyalardan foydalaniladi. Nutq faoliyatining subyekti adresatning (tinglovchining) qabul qilishi uchun mo‘ljallangan nutqni amalga oshiradi. Bu o‘rinda nutq ikkiyoqlama – ham nutq faoliyatining mahsuli sifatida, ham muayyan maqsadga erishish vositasi sifatida qatnashadi.

Nutq harakati sodir bo‘ladigan sharoit yoki vaziyatga qarab, u o‘z maqsadiga erishishi va shu bilan muvaffaqiyatli bo‘lishi yoki unga erisha olmasligi mumkin. Muvaffaqiyatli bo‘lish uchun nutq harakati hech bo‘lmaganda mos bo‘lishi kerak. Pirovard natijada so‘zlovchining kommunikativ qobiliyati namoyon bo‘ladi yoki kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka duch keladi. Illokutiv akt orqali adresat ongida ayrim fikriy o‘zgarishlarni amalga oshirish orqali ma’lum natijalarga, ya’ni perlokutiv aktga erishiladi.

Istak kategoriyasining yana bir jihati shundaki, istakka oid til birliklari darajalanish xususiyatiga ega.

Y.Y.Makeyevaning tavsifiga ko‘ra, istakning muayyan darajalari mavjud: istak, birinchi navbatda, bu – so‘zlovchining yaqin orada o‘zi xohlagan narsasiga ega bo‘lish niyatini nazarda tutuvchi rejalari; qolaversa, istak – ko‘ngil ehtiyoji yoki yoqimli kutish; va nihoyat, istak – ruhiy iztirob, sog‘inch. Demak, istak oddiy moddiy ehtiyojgina emas, balki qalb xohishi, ichki kuchning namoyon bo‘lishi va inson irodasining munosib ifodasidir [17. B. 21].

O‘z sohasini mukammal biluvchi o‘qituvchi qaysi turdagi dars bo‘lishidan qat’iy nazar shu sohadagi o‘quv materialini to‘liq bayon qilib, o‘quvchi ongiga yetkaza oladi. Ko‘p hollarda gap o‘quvchining o‘sha bilimni o‘zlashtirishga bo‘lgan xohishi darajasiga bog‘liq. (Sh.Abdullayeva).

Hissiyot va kuchli istak – uning qanchalik ro‘yobga chiqishidan qat’i nazar – inson shijoati va ijodkorligi manbaidir (A.Eynshteyn).

Tikka turganicha, istamaygina piyolaga choy quyib, quruq ho‘play boshladi (S.Zunnunova).

Qayd etilishicha, Sane “Bavariya” tarkibiga o‘tishni juda xohlayotgandi va klub bilan shaxsiy shartnoma borasida kelishuvga ham erishib bo‘lgandi (Internetdan).

– Yo tilivizorimizni olib o‘tib beraymi?

– E, qiziqmisan, o‘g‘lim, dulbuzardi yosh bollar ko‘ratta, – chol haligina rosayam oynai jahonni ko‘rgisi kelganini aytmadi. Aytib bo‘ladimi, yosh bolaga o‘xshab (Nabi Jaloliddin).

Bu namoz o‘qimasa ularga nimaykin-a? Unga qolsa, o‘qishni juda-juda istaydi, kallasi olmasa, nima qilsin? Namoz keksalikning ziynati ekanligini allaqachon anglab yetgan. Lekin nima qilsinki, ikkitagina surani yodlashdan ham g‘ofil qolgan (Nabi Jaloliddin).

Ko‘nglida yengib bo‘lmas ishtiyoq ulg‘aygan sayin yasalajak haykalchaning turfa tarhlari xayolida chizila bordi. shunday narsa yasasinki, ko‘rganlar ijodkor nima demoqchi bo‘lganini anglab yetsinlar, unga tan bersinlar (B.Abdug‘afur).

Hozirgi o‘zbek tilida harakatning bajarilishiga bo‘lgan kuchli istak asosan qani *edi… -sa, qani endi.. -sa* formasida ifodalanadi. Lekin bunday gaplardan “*qani edi*”, “*qani endi*” formalarini tushirib qoldirib, o‘rnida *-sa edi* formasini qo‘llash mumkin bo‘lavermaydi. Bundan tashqari, harakatning bajarilishiga istakning kuchliligi “*qani edi*”, “*qani endi*” kabilarsiz ham bilinib turishi mumkin. Bunday hollarda ham *-sa* formasi o‘rnida *-sa edi* formasini qo‘llash mumkin bo‘lavermaydi [18. B. 162].

Qani endi, onam yonimda bo‘lsa.

Edi to‘liqsiz fe’lini qo‘llash bilan shu istakning amalga oshish-oshmasligi noaniqligini ko‘rsatuvchi munosabat ifodalanadi, hatto, istakning aksi yuz berishi ehtimoldan uzoq emasligi ifodalanadi. Shuning uchun *-sa edi* shakli bildirgan istak *xayoliy istak, bajarilishiga to‘la ishonch bo‘lmagan istak* bo‘ladi. *-sa edi* shakli mustaqil sodda gapning kesimi vazifasida kelganda *-sa* shakli istak ifodalaydi. Ergash gapning kesimi vazifasida kelganda esa shart ma’nosini bildiradi. *Edi* to‘liqsiz fe’li esa ikkala holatda ham munosabat ifodalovchi vosita sifatida qatnashadi [18. B. 164].

– Xotin topadigan, maslahat beradiganlar ko‘payishdi. Bir haftaning ichida to‘y qilib, mening ustimga sizni keltirib qo‘ydi...

Shu yerga kelganda, Poshshaxon chidayolmadi:

– Men xohlab kelgan bo‘lsam ekan... Oyog‘imdan bog‘lab, bir cho‘riday olib keldilar. Tug‘ilganimga, yoshligimda kasal bo‘lib o‘lib ketmaganimga o‘kina-o‘kina kelganman (Cho‘lpon, “Kecha va kunduz”).

Ushbu kontekstda so‘zlovchining oila qurishdek muhim ijtimoiy voqelik o‘z ixtiyori, xohishi bilan amalga oshirilmagani, majburlab erga berilgani istalmaganlikning yuqori darajasi sifatida *“oyog‘imdan bog‘lab”, “bir cho‘riday”, tug‘ilganimga* (o‘kinib)*, yoshligimda kasal bo‘lib o‘lib ketmaganimga* (o‘kinib) birikmalari orqali ifodalangan.

Yuragi o‘sha kunlarning tezroq kelishini istaydi, kuyovlik sarposida shu qoraqosh yigitning bo‘lishini tilaydi. Lekin bu istak, bu tilak, bu orzu sir pardasiga chirmab tashlangan. Birovga aytolmaydi.

Ushbu misolda istakning kuchli darajasi “istak” verbalizatorlariga oid istaydi, tilaydi, istak, tilak, orzu so‘zlarining qator kelishi orqali ifodalangan.

“Asab kasalliklari, – deb yozadi Freyd, – shaxsning istaklari tashqi yoki ichki olamda qattiq qarshilikka uchrab yuzaga chiqa olmaganida vujudga keladi” [14. B. 126].

Nahotki, bu borada Yusuf haqli? Nahotki, men oila va jamiyatda orzusiga erisholmagan, ulardan sazasi qaytgan kishi misol barcha yo‘qotganlarimni dindan topmoqchi bo‘ldim? Yusuf nima devdi? Ha-ya, u taxminan shunday degandi:

– Shunday qilib, siz avliyolik sari yo‘lga chiqqandingiz, – chunki boshqachasiga rozi bo‘lmadingiz, siz ilohiyotda ana shu yuksak maqomga erishgandagina ruhiy sokinlikda yashashi mumkin bo‘lganlar xilidansiz, – lekin botindagi Ishqni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini, usullarini topa olmadingiz... Rahnamoning va yetarli chuqur tasavvufiy ilmning yo‘qligi hamda sizni o‘rab turgan muhitning moddiyuncha tabiati kemangizning g‘arq bo‘lishiga olib keldi. Oqibatda, endi siz hech bir ishga qo‘l urolmay, tushkun va zabun holda yuribsiz. Chunki ruhiyatingiz hayot zarbalaridan zaxalangan. Sizning iste’dodingiz – “men”ingiz esa o‘z ichingizda qolib ketdi. Tashqi dunyoga chiqmadi, chiqolmadi. Siz butunlay o‘z ichingizdasiz, vujud qafasingizda mahbussiz! Sizning hozirgi parishonligingiz, ana shu botinda qolgan mahbusning tabiiy holi, kayfiyatidir... (U.Hamdam, “Muvozanat”).

Amalga oshmagan reja, xohish va istaklar psixikadan butunlay o‘chib ketmay, real ongdan ong ostiga tushib ketadi. Faqat endi u odamning ichida yovuz dushmanga aylanadi va har doim uning hayotini zaharlashga urinadi. Vaqtida aytilmay qolgan fikr, ichga yutilgan xo‘rlik, real sharoit amalga oshishiga yo‘l bermagan istag-u xohish, uzoq vaqt rost gapni aytolmay, noiloj yolg‘on gapirib yurish oxiri borib odamni ruhiy xastalikka duchor etadi [19. B. 94–99].

O‘zbek tilida istak periferiyasida orzu, umid, tilak, niyat kabi semantik yaqin tushunchalar ham borki, bu leksemalar kontekstda xohish-istak bilan qorishiq mazmunni ifodalaydi. Ularning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi sharhlari ham buni tasdiqlaydi:

Umid [forscha – ishonch; orzu, tilak, istak].

1. Biror istakning amalga oshishiga bo‘lgan ishonch; ishonch bilan kutish; e’tiqod. 2. Biror narsa qilishga, biror narsaga erishishga bo‘lgan ichki intilish, ichki hissiyot; istak, orzu, niyat [20. B. 283].

1) *– Juda keksayib qolgan ko‘rinasiz, o‘tqazayotgan manavi ko‘chatlarning mevasidan tatib ko‘rish umidingiz bormi hali?*

– Albatta, umidim bor. Bu dunyo g‘aroyibotlarga to‘la. Mabodo, bizga nasib etmasa, nevaralarimga nasib etar, bog‘ qilish savob ish, uni qo‘lidan kelgan har kim qilishi lozim. O‘zim mevasidan tatib ko‘rmasam, boshqalar tatib ko‘rar, soyasida o‘tirganlar meni eslab, duo qilib qo‘yar, – debdi qariya (“Sharq yulduzi” jurnali).

2) *– Niyatlaring yaxshi, ammo tomni yangilashga pul kerak-da, o‘g‘illarim, – dedi ota axiyri muloyimlik bilan. Uning dilida ham orzu-havas, mehnat-u mashaqqat bilan o‘tayotgan umrining qolgan qismini ko‘rkamroq imoratlarda farog‘at bilan kechirish umidi yo‘q emas edi. Mayli, sabr qilib turaylik-chi, Xudo bir yo‘lga boshlar*... (Q.Kenja, “Palahmon toshlari”).

3) *Saroymulkxonim bilan Xonzoda xonimlar yolg‘iz suhbatlashmoq umidida xiyobondan bog‘ning etak tomonidagi xilvat joyni qora tortib borishardi* (Muhammad Ali, “Shohruh Mirzo”).

Orzu [*forscha* – xohish, intilish; istak]. Dildagi istak; ezgu umid; intilish.

Orzulamoq. Orzu qilmoq, mushtoq bo‘lmoq, havasi kelmoq. *Yoqimtoy bo‘l har yerda, Mak-*

tab, kino, lagerda. Har so‘zingdan bol tomsin, Ko‘rgan orzulab qolsin (Q.Muhammadiy).

Orzumand. [*forscha* – istovchi, xohlovchi, intiluvchi; orzu qiluvchi]. Orzu qiluvchi, istovchi; intizor, mushtoq.

Orzu-xayol. Istak, umid va o‘y-fikr.

Orzu-havas. 1. Dildagi ezgu istak va niyatlar.

2. Orzuli katta to‘y-tomoshalar, tantanali marosimlar.

Orzu-havasli Orzu-havas qiladigan; dabdabali to‘y-marosimlarni yaxshi ko‘radigan va ularni o‘tkazishga qurbi yetadigan [21. B. 136].

Niyat [*arabcha* – maqsad, o‘y, mo‘ljal, o‘ylab qo‘yilgan ish]. Ko‘ngildagi istak-orzu, ahd, maqsad [21. B. 43].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insonning xohish-istaklarini ifodalovchi mazmuniy maydon o‘z ifodalanish vosita va usullariga, voqelanish omil va imkoniyatlariga, intralingvistik va ekstralingvistik xususiyatlarga ega bo‘lgan psixolingvistik hodisa sifatida *kategoriya* maqomiga ega bo‘la oladi va leksik-semantik, grammatik va kommunikativ aspektlar nuqtayi nazaridan o‘rganish maqsadga muvofiqdir. “*Istak*” kategoriyasi murakkab etnopsixolingvistik hodisa sifatida falsafiy, madaniy, mantiqiy, ijtimoiy va etimologik asoslar prizmasida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Nutqiy akt – ma’lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir. U so‘zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga bo‘ysundirilgani bois uning turli ko‘rinishlari farqlanishi ta’kidlanadi.

Xususan, istakni ifodalovchi nutq ko‘rinishi istak nutqiy aktini hosil qiladi. O‘zbek tilida bevosita (eksplitsit) va bilvosita (implitsit) istak aktlari kuzatildi.

Адабиётлар:

1. *Сафаров Ш*. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 318 б.

2. *Ҳакимов М*. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 176 б.

3. *Дорошенко А.В.* Логический анализ языка. / В кн.: Побудительные речевые акты в косвенных контекстах. – Москва: Наука, 1989. – С. 76–91.

4. Лингвистический энциклопедический словарь. /Глав.ред. В.Н.Ярцева. – Москва: Советская энциклопедия, 1989. – 685 с. [Электронный ресурс]. URL: http://ru.wikipedia.org (Дата обращения: 08. 01.2023)

5. *Маҳмудов Н., Нурмонов А., Аҳмедова А., Солихўжаева С*. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 297 б.

6. *Усмонова Х*. Ўзбек тилидаги гап бўлакларининг позицион структураси: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 32 б.

7. *Давлатова Р.Ҳ*. Пропозиция ва унинг ўзбек тилида ифодаланиши: филол.фан.номз.дисс... автореф. – Тошкент, 2009. – 58 б.

8. *Ҳакимов М.Х., Газиева М.М*. Нутқий акт структураси // “Filologiyaning dolzarb masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-uslubiy anjumani materiallari to‘plami, Қўқон, 2020. – Б. 26–30.

9. *Қурбонова М*. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик аспекти. – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 160 б.

10. *Иосифова В.Е.* Семантика смысловых вариантов просьбы // Фундаментальная наука ВУЗАМ, 2017. – № 1. – С. 424–431.

11. *Формановская Н.И.* Речевое взаимодействие: коммуникация и прагматика. – Москва: ИКАР, 2007. – 478 с.

12. *Гловинская М.Я.* Семантика глаголов речи с точки зрения теории речевых актов // В кн.: Русский язык в его функционировании. Коммуникативно-прагматический аспект: сб. науч. тр. – Москва: Наука, 1993. – С. 158–218.

13. *Савицкий В.М*. Английская фразеология: проблема моделирования. Самара: Изд-во “Самарский Университет”, 1993. – 172 с.

14. *Фрейд З.* Введение в психоанализ: Лекции: [Пер. с нем.]. [Коммент. М.Г. Ярошевского]. – Москва: Наука, 1989. – 455 с.

15. *Герас Ю.А*. Когнитивно-лингвистические характеристики группы английских лингвокультурных концептов желание // Известия РГПУ им. А. И. Герцена, 2008. – № 80. – С. 47–54.

16. *Шамахмудова А*. Билвосита нутқий актларни талқин этиш тамойиллари (этнопрагматик омиллар) // Хорижий филология, 2017. – № 4. – Б. 83–87.

17. *Макеева Е.Ю*. Функционально-семантическое поле как средство репрезентации концепта “желание” в английском языке (в синхронии и диахронии): автореф.дисс…канд.фил.наук. – Самара, 2006. – 21 с.

18. *Ҳожиев А*. Тўлиқсиз феъл. – Тошкент: Фан, 1970. – 263 б.

19. *Раҳмат Р.* Кипригим оғирлик қиларди... // Тафаккур, 1999. – № 1. – Б. 94–99.

20. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли. 4-жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 606 б.

21. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли. 3-жилд. / А.Мадвалиев таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 687 б.

COGNITIVE-PRAGMATIC AND COMMUNICATIVE INTERPRETATIONS OF THE DESIRE CATEGORY

Kamoldin, J. Umarov[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2023. 1(69). 83-91

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: *category, speech act, proposition, locution, illocution, perlocution, presupposition, verbal means, purpose of communication.*

These questions are Sh. Safarov, M. Khakimov, A. Nurmonov, V. E. Iosifova, N. I. Formanovskaya, Yu. A. Geras, E. Yu. Makeeva, A. Based on the views of such linguists as Shamakhmudova, the cognitive-pragmatic and communicative aspects of the concept of desire as a language category are defined.

It is necessary to determine the functional-semantic field of this concept when systematizing the ways and means of expressing the meaning of desire. Therefore, in the article, in the monocentric core of the meaning of desire, morphological, syntactic and lexical-semantic means of different language levels are revealed. The various units of expression that serve the content of desire are combined into a common field of desire. It was noted that linguistic units belonging to the periphery of the functional-semantic field (FSM) also participate in the act of mediated desire.

The theory of speech act – as a new method of describing target expressions, it is emphasized that different forms of a speech act are differentiated due to the fact that they are subordinate to the specific communicative goal of the speaker. In particular, the speech form expressing desire creates a speech act of desire. There are direct (explicit) and indirect (implicit) acts of desire in the Uzbek language. The analysis of speech acts in the Uzbek language shows that the modal meaning expressed in the speaker’s speech by a certain sentence can pragmatically carry both explicit and implicit meanings, and each of these meanings is equivalent to a certain speech act.

In conclusion, we can say that the semantic field that expresses a person’s desires can have the status of a category as a psycholinguistic phenomenon with its own means and methods of expression, factors and possibilities

of implementation, intralinguistic and extralinguistic features, studied from the point of view of lexico-semantic, grammatical and communicative aspects of. The category of “desire” as a complex ethnopsycholinguistic phenomenon requires consideration in the prism of philosophical, cultural, logical, social and etymological grounds.

References:

1. Safarov, *Sh* (2008). *Pragmalingvistika* [Pragmalinguistics]. Tashkent: O‘zbekiston.

2. Hakimov, M. (2013) *O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari* [Basics of Uzbek pragmalinguistics]. Tashkent: Akademnashr.

3. Doroshenko, A.V. (1989) *Logicheskij analiz yazyka* [Logical language analysis]. In: Pobuditel’nye rechevye akty v kosvennyh kontekstah [Incentive speech acts in indirect contexts]. Moscow: Nauka. Pp. 76-91.

4. Yarceva, V.N. (ed.) (1989) *Lingvisticheskij enciklopedicheskij slovar’* [Linguistic Encyclopedic Dictionary]. Moscow: Sovetskaya enciklopediya, 1989. [Online]. URL: http://ru.wikipedia.org (Date of access: 08. 01.2023)

5. Mahmudov, N., Nurmonov, A. (et.al.) (1992) *O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi* [Meaningful syntax of the Uzbek language]. Tashkent: Fan.

6. Usmonova, H. (2009) O‘zbek tilidagi gap bo‘laklarining pozitsion strukturasi [Positional structure of sentences in the Uzbek language]. Abstract of Dissertation for the degree of doctor of philological sciences. Tashkent.

7. Davlatova, R.H. (2009) Propozitsiya va uning o‘zbek tilida ifodalanishi [Proposition and its expression in Uzbek]. Abstract of dissertation for the candidate of philological sciences. Tashkent.

8. Hakimov, M.H., Gazieva, M.M. (2020) Nutqiy akt strukturasi [Speech act structure]. In: ‘*Filologiyaning dolzarb masalalari’* [Actual issues of philology]. A collection of materials of the republican scientific-methodological conference. Qo‘qon. Pp. 26-30.

9. Qurbonova, M. (2018) *O‘zbek bolalari nutqining pragmalingvistik aspekti* [Pragmalinguistic aspect of speech of Uzbek children]. Tashkent: Adabiyot uchqunlari.

10. Iosifova, V.E. (2017) Semantika smyslovyh variantov pros’by [Semantics of semantic variants of the request]. *Fundamental’naya nauka VUZAM*. No 1. Pp. 424-431.

11. Formanovskaya, N.I. (2007) *Rechevoe vzaimodejstvie: kommunikaciya i pragmatika* [Speech interaction: communication and pragmatics]. Moscow: IKAR.

12. Glovinskaya, M.Ya. (1993) *Semantika glagolov rechi s tochki zreniya teorii rechevyh aktov* [Semantics of verbs of speech from the point of view of the theory of speech acts]. In: *Russkij yazyk v ego funkcionirovanii. Kommunikativno-pragmaticheskij aspekt* [Russian language in its functioning. Communicative-pragmatic aspect]. Collection of scientific papers. Moscow: Nauka. Pp. 158-218.

13. Savickij, V.M. (1993) *Anglijskaya frazeologiya: problema modelirovaniya* [English Phraseology: The Problem of Modeling]. Samara: Izdatel’stvo “Samarskij Universitet”.

14. Frejd, Z. (1989) *Vvedenie v psihoanaliz:* Lekcii: [Introduction to Psychoanalysis: Lectures]. Moscow: Nauka.

15. Geras, Yu.A. (2008) Kognitivno-lingvisticheskie harakteristiki gruppy anglijskih lingvokul’turnyh konceptov zhelanie [Cognitive-linguistic characteristics of the group of English linguocultural concepts desire]. *Izvestiya RGPU im. A.I.Gercena*. No 80. Pp. 47-54.

16. Shamahmudova, A. (2017) Bilvosita nutqiy aktlarni talqin etish tamojillari (etnopragmatik omillar) [Principles of interpretation of indirect speech acts (ethnopragmatic factors)]. *Xorijiy filologiya*. No 4. Pp. 83-87.

17. Makeeva, E.Y. (2006) Funkcional’no-semanticheskoe pole kak sredstvo reprezentacii koncepta “zhelanie” v anglijskom yazyke (v sinhronii i diahronii) [Functional-semantic field as a means of representing the concept “desire” in English (in synchrony and diachrony)]. Abstract of dissertation for the candidate of philological sciences. Samara, 2006.

18. Hojiev, A. (1970) *To‘liqsiz fe’l* [Imperfect verb]. Tashkent: Fan.

19. Rahmat, R. (1999) *Kiprigim og‘irlik qilardi*... [My eyelashes were heavy]. *Tafakkur.* No 1. Pp. 94-99.

20. Madvaliyev, A. (ed.) (2008) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 4. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

21. Madvaliyev, A. (ed.) (2006) *O‘zbek tilining izohli lug‘ati* [Explanatory dictionary of the Uzbek language]. In 5 volumes. Vol. 3. Tashkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

Muallif haqida ma'lumot:

UMAROV Kamoldin Jamolovich – Andijon davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi. E-mail: ukamoliddin@list.ru